

GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Azimova Matlubaxon Abduraxmanovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi

Andijon shahar akademik litseyi Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamda Geografiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati xaqida so'z yuritilar ekan, fanimning murakkabligi hamda qiziqarligini hisobga olgan holda o'quvchilarning barcha imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, fanni rivojlantirish maqsadida eng zamonaviy metodlardan misollar keltirilib, uning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Geografiya, fikr, bahs, metod, g'oya, ta'lim, tahlil, mahorat, guruh, interfaol, samaradorlik.

Abstract: in this article, the importance of using new pedagogical technologies in teaching Geography is discussed, all the possibilities of the student are analyzed, taking into account the complexity of mastering subject. Also, examples of new methods in geography development are given and its importance is revealed.

Key words: geography, opinion, debate, method, idea, education, analysis, skill, group, interactive, efficiency.

So'ngi yillarda dunyodagi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim sifatini eng yuqori darajaga olib chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Shunga ko'ra yurtimizda ham ta'lim sifatini oshirishga bir qancha chora tadbirlar yo'lga qo'yilmoqda. Shulardan biri, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda eng zamonaviy metodlar orqali darslarni sifatli tashkil etish. Ayniqsa geografiya fani qiziqarli fan bo'lganligi sababli, o'quvchilarni butun borliqni bilish, dunyo mamlakatlari haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishini hisobga olgan holda, darslarda turli qiziqarli methodlarni qo'llash eng to'g'ri yondashish deb olsak bo'ladi.

Quyida shu kabi yangi pedagogik uslublarning mohiyati va amalda qo'llay olishdagi samaralari haqida so'z yuritimiz.

“BAHS – MUNOZARA” metodi – biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs – munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirilishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs – munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim.

“Bahs – munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- 1) barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;

2) “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;

3) fikr – g‘oyalarni tinglash madaniyati;

4) bildirilgan fikr – g‘oyalarning takrorlanmasligi;

5) bir – biriga o‘zaro hurmat.

“Bahs – munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

a) Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

b) Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

c) Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

d) Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

e) Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“Bahs – munozara” metodining afzalliklari:

1) ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;

2) ta’lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;

3) ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogik metodlardan foydalanish avvalo o‘qituvchini o‘z ustida ishlashga undaydi, qolaversa o‘quvchilarni darslarga faolligini oshiradi. Hozirgi kunda har bir o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va zamonaviy interfaol metodlarni darslarda qo‘llay olishi juda muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. G‘.M.Sayfullayev “Geografiya o‘qitish metodikasi” Buxoro -2022 yil
2. H.Vaxobov “Geografiya ta’limi metodikasi” Toshkent-2007 yil
3. E.G.Usmanova “Geografiya fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish” Toshkent – 2022 yil
4. H.Vahobov, F.Saydamatov, N.Eshpo‘latov “Geografiya ta’limida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish. Xalq ta’limi – 2007 yil.
5. Mamatov, G. B. R. (2024). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES. Innovations in Technology and Science Education, 3(19), 135-139.

6. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.

7. Mukhammadaliyeva, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4)

8. Маджидова, Р. (2018). РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКАХ. Farg'ona davlat universiteti, (1), 20-20. 9. Djumaniyozova, Z. (2024). PROVERBS AS AN OBJECT OF AXIOLOGICAL LINGUISTICS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(01), 56-65.

10. Urisheva, M. R. (2019). Representation of the linguistic world picture through a human factor. RELIGACIÓN. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(15), 234-240.

11. Madjidova, R. U. (2020). Antropotsentrik maqollarning aksiologik tadqiqi (o'zbek va rus tillari materiallari asosida). Filol. fan. dok.... diss. avtoref.

12. Маджидова, Р. У. (2024, May). АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ШКАЛА ОЦЕНКИ ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦАХ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 10, pp. 501-504).

13. Urisheva, M. R. N. (2024). THEORETICAL BACKGROUND AND THE ROLE OF TERMINOLOGY IN LINGUISTICS. worldly knowledge konferens, 6(2).

14. Majidova, R. U. (2023). LANGUAGE AS A COMMUNICATION TOOL: UNDERSTANDING ITS FUNCTIONS AND IMPLICATIONS. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).